

DEMOCRACY OF GOVERNMENT AND GOVERNANCE

Yusupova Khurshida Bahodirovna

xurshidabahodirovna@mail.ru

Annotation: The first ground for the rule of law and civil society to flourish must be democratization. What kind of parliament it is, what place it has in the system of public authorities, what laws are passed, to what extent these laws can ensure human rights and freedoms - not only the nature of the relationship between the state and society, but also will undoubtedly affect all aspects of the ongoing state and society building? This article discusses the democratic principles of the system of government and governance in Uzbekistan, as well as the path it has chosen in the transition to a system of government based on genuine people's power.

Keywords: Legislative power, executive power, judiciary, Oliy Majlis, Cabinet of Ministers, President, political reform, democratization, principle of separation of powers, bicameral parliament, democracy.

DAVLAT HOKIMIYATI VA BOSHQARUVINI DEMOKRATLASHTIRISH

Yusupova Xurshida Bahodirovna

xurshidabahodirovna@mail.ru

Annotatsiya: Huquqiy davlatchilik va fuqarolik jamiyati gullab-yashnashi uchun ilk zamin — bu demokratlashtirishdan boshlanmog'i shart. Zero, parlamentning qanday bo'lishi, davlat hokimiyati organlari tizimida uning qanday o'rin egallashi, qanday qonunlar qabul qilinishi, bu qonunlar inson huquqlari va erkinliklarini qay darajada ta'minlay olishi — davlat va jamiyatning o'zaro munosabatlarining harakterigagina emas, balki bundan keyin davom etadigan davlat va jamiyat qurilishining barcha jihatlariga ta'sir qilishi shubhasiz. Ushbu maqolada, O'zbekistonda davlat hokimiyati tizimi va boshqaruvining demokratik tamoyillari, shuningdek chinakam xalq hokimiyatiga asoslangan boshqaruv tizimiga o'tishida tanlagan yo'li xususida fikr va mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: Qonun chiqaruvchi hokimiyat, ijro etuvchi hokimiyat, sud hokimiyati, Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi, Prezident, siyosiy islohatlar, demokratlashtirish, hokimiyatning bo'linish tamoyili, ikki palatali parlament, demokratiya.

Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish - hokimiyatlar bo'linishi konstitutsiyaviy printsipini hayotga izchil tadbqiq etish, hokimiyatlar o'rtasida o'zaro manfaatlar muvozanatining samarali tizimini shakllantirish, markazda va joylarda qonun chiqaruvchi va vakillik hokimiyatining vakolatlari hamda nazorat vazifalarining rolini kuchaytirish, sud tizimini liberallashtirish va uning mustaqilligini ta'minlash bo'yicha g'oyat dolzarb chora-tadbirlarni ko'rish demakdir. Boshqaruv sohasini markazlashtirishni cheklash, bu boradagi vazifalarning bir qismini Respublika darajasidan viloyat, tuman va shahar miqyosiga o'tkazish, O'zbekistonda mahalliy o'zini o'zi boshqarishning noyob shakli bo'lgan mahalla tizimini shakllantirish masalalariga katta ahamiyat qaratildi.

Qonun chiqaruvchi hokimiyat jamiyat hayotining xilma-xil sohalaridagi o'zgarishlarni, o'zaro munosabatlarni tartibga solish, ularni huquqiy jihatdan kafolatlashga doir qonunlarni ishlab chiqadi. Davlat hokimiyati tomonidan ishlab chiqilgan qonunlarni bajarish va ularga amal qilish majburiy hisoblanadi. Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi va "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonunlarning mazmun-mohiyati zahirida aynan davlat boshqaruvi tizimini demokratlashtirish masalasi ko'ndalang boib turibdi. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishning eng asosiy prinsiplaridan biri - qonun ustunligini jamiyatda inson huquq va

erkinliklarini ta'minlash kafolatlaridan biridir. Qonun ustunligi huquqiy davlatning belgisi sifatida shuni anglatadiki, iqtisodiyot siyosat, ijtimoiy va madaniy sohalarida asosiy ijtimoiy munosabatlar umuman har doim ham nafaqat qonun bilan balki oliy organlar qabul qilgan oliy huquqiy hujjatlari bilan ham huquqiy tartibga solinadigan holatlar ko'p uchraydi.

Ma'lumki, o'tgan davr mobaynida mamlakatimizda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish sohasida amalga oshirilgan islohotlar o'ta muhim bir maqsadga, ya'ni hokimiyatlar bo'linishi konstitutsiyaviy printsiptini hayotga izchil tatbiq etish, vakillik hokimiyatining vakolatlari hamda nazorat vazifalarining rolini kuchaytirish, sud tizimini liberallashtirish va uning mustaqilligini ta'minlash bo'yicha g'oyat dolzarb chora-tadbirlarni ko'rishga qaratilgan edi.

Bu jarayonda markaziy ijro etuvchi hokimiyatning boshqaruv tuzilmalari va ma'muriy organlarning vazifalarini o'zgartirishga, ularning boshqarish, tartibga solish va taqsimlash borasidagi vakolatlarini, xo'jalik tuzilmalari faoliyatiga bevosita aralashuvini keskin qisqartirishga katta e'tibor berildi. Boshqacha aytganda, ularning vakolatlarini bozor tamoyillariga muvofiqlashtirish va pirovard natijada davlatning iqtisodiyotni boshqarishdagi rolini jiddiy kamaytirish ko'zda tutilgan edi.

Demokratiya, plyuralizm va ko'ppartiyaviylik tamoyillari asosida, shuningdek, tashqi siyosiy muassasalar va shunga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimi asosida yangi siyosiy tizim rivojining huquqiy va institutsional negizini yaratishga qaratilgan.

Xulosa qilib aytganda, bunda siyosiy tizimning tartibga solish imkoniyatining ahamiyati ham ravshan ko'rinib turibdi. Boshqacha aytganda, siyosiy tizimning tashqi sharoiti va ichki holatning o'zgarishlariga aniq munosabat bildirishni uni chinakam barqaror, o'zini o'zi rivojlantirishga layoqatli tizimga aylantiradi. Bunda hozirgi bosqichda O'zbekiston siyosiy tizimining moslashuv qobiliyatini oshirishning qat'iy usuli orqali, siyosiy tizim yaxlitligini saqlab qolgan holda, kichik tizimlarning — mahalliy hokimiyat tizimlari, o'z-o'zini boshqaruv organlari, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, jamiyatlar, ijodiy uyushmalarning mustaqilligini kuchaytirish hisobidan erkinlik darajalarini bosqichma-bosqich, sekin-asta oshirib borish taqozo etiladi. Siyosiy islohotlarning navbatdagi bosqichini aynan shu maqsadlarga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Xalq so'zi" 28.04.2021-y <https://xs.uz/uz/post/davlat-hokimiyati-tizimida-parlamentning-rol-qanday>
2. https://constitution.uz/oz/pages/hokimiyatlar_bo%E2%80%99linishi_tamoyili
3. <https://www.ombudsman.uz/oz/docs/demokratiya-va-inson-huquqlari-instituti-2>
4. <https://hozir.org/18-mavzu-davlat-hokimiyati-va-boshqaruvini-demokratlashtirish.html?page=2>